

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.Sh.Nomozov</b>	
Internet-makon mohiyati, genezisi va zamonaviy tarkibi.....	328
<b>U.R.Sobirova</b>	
Huquq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati .....	332
<b>A.Ch.Abdiyev, B.I.Xolyorova</b>	
Ziyorat turizmi sohasida O'zbekistonning o'rni va imkoniyatlari .....	335
<b>I.Rizayev</b>	
Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar.....	339
<b>R Mardonov</b>	
Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot .....	346
<b>N.X.Xakimov B.A.Nabiyev</b>	
O'rta osiyoda hozirgi eklovliy muammolar va transfor suvdan foydalanish muammolari.....	350
<b>X.Samatov</b>	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi (ijtimoiy falsafiy tahlil) .....	358
<b>H.Muhamadiyev</b>	
Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida .....	365
<b>D.B.Sharipov</b>	
Tinchlikni ta'minlashning innovasion omillari .....	370
<b>X.R.Xolidaxon</b>	
Xoja Ahror Valiy qarashlarida ilohiy muhabbat tushunchasining falsafiy tahlili.....	374

---

#### SIYOSAT

<b>A.Z.Ismayilov</b>	
Huquqiy ong tizimida huquqiy davlatchilik g'oyalari .....	378
<b>J.Sultonov</b>	
Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish .....	384

---

#### TARIX

<b>B.Usmonov, D.A.Madalimov</b>	
Temurning hayoti va shaxsiy fazilatlari Uilyam Devi hamda Jozef Uayt talqinida .....	392
<b>M.Sh.Muzaffarjon</b>	
O'zbekistonda turizmning vujudga kelishi tarixi (XX asrning 20-30-yillari) .....	397
<b>B.M.Abdullayev</b>	
Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlarining so'ngi bronza va ilk temir davrlari shaharsozligining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni va roli .....	405
<b>N.V.Karimova</b>	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	416
<b>D.M.Turdiyeva</b>	
Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	421
<b>A.A.Aloxunov</b>	
Arxeologik tadqiqot metodiga doir .....	425
<b>A.A.Yo'ldashev</b>	
XX asrning 20-yillarida ozarbayjonda ta'lim olgan turkistonlik yoshlar tarixidan.....	431
<b>F.E.Atajanova</b>	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar .....	436
<b>P.P.Norbo'tayev</b>	
Epos va din .....	440
<b>Z.B.Rahmonqulova, S.A.Hamrayev</b>	
Ernazar Maqsud o'g'li elchiligiga oid tadqiqotlar tahlili.....	446
<b>J.Sh.Museyibzoda</b>	
O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'zgarishlar: xalqaro tashkilotlar orqali obro' va hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etish.....	453
<b>M.R.Umirzakova</b>	
Turkiston ASSRda soliqqa tortish masalalari.....	460

**TURKISTON ASSRDA SOLIQQA TORTISH MASALALARI**  
**ВОПРОСЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР**  
**ISSUES OF TAXATION IN THE TURKESTAN ASSR**

**Umirzakova Malohat Roxatalievna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Umirzakova Malohat Roxatalievna

– Namangan davlat universiteti doktoranti.

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan dastlabki yillarda olib borilgan soliq siyosati, Samarqand, O'sh, Kazalinsk, Chernyaev uездlarida og'ir iqtisodiy ahvol va qishloq xo'jaligining izdan chiqish, soliqlarning undirilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. O'lka aholisining soliq to'lash qobiliyatlarining pasayishi, narxlarning keskin oshishi va ocharchilikning yuzaga kelish sabablari tahlil qilinadi. Turkistonda soliq idoralari faoliyatining noqonuniy olib borilganligi va soliqqa tortish masalalari arxiv manbalariga asoslangan holda yoritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается налоговая политика, проводимая советскими властями в первые годы в Туркестане. Анализируются тяжёлые хозяйственные положения в Самаркандском, Ошском, Черныевском, Казалинском уездах, в горных местностях. Анализируются причины снижения способности населения платить налоги, резкого роста цен на рынках, возникновение и причины голода в Ошском и других уездах, положение скотоводческого населения в горных местностях. Приведены информации основанные архивными источниками об общественном состоянии Туркестана, освещаются вопросы налогообложения, состояние в сельском хозяйстве.*

**Abstract**

*This article discusses the tax policy pursued by the Soviet authorities in the early years in Turkestan. The difficult economic situation is analyzed in Samarkand, Osh, Chernyaev, Kazalinsk districts, in mountainous areas. The reasons for the reduced ability of the population to pay taxes, the sharp rise in prices in the markets, the occurrence and causes of famine in Osh and other districts are analyzed. The position of the pastoral population in mountainous areas information based on archival sources on the social state of Turkestan is given, taxation issues, the state of agriculture are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** Turkiston, sovet hokimiyati, soliq siyosati, chayrik, uezd, soliq siyosati, zemstvo yig'imi.

**Ключевые слова:** Туркестан, Советская власть, налоговая политика, чайрик, уезды, налоговые органы, земствленные сборы.

**Key words:** Turkestan, Soviet power, tax policy, districts, chayrik, tax policy, zemstvo dues and fees.

**KIRISH**

Har qanday ijtimoiy tuzum va har qanday davlatning taraqqiy topishi, rivojlanishini, iqtisodiyotning shakllanishi soliq va to'lovlarsiz, soliq siyosatisiz tasavvur etish qiyin. Mazkur maqolada Rossiya va Turkiston munosabatlari Markaz manfaatlariga yo'naltirilishi davomida aholining soliq to'lash qobiliyatlarining pasayishi, qishloq xo'jaligining achinarli holatga kelib qolishi va izdan chiqishi bayon etiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Turkistondagi iqtisodiy holat va soliqqa tortish masalalariga doir tarixiy adabiyotlarni ikki davr: sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarga ajratib o'rganish mumkin.

Sovet davri (1917-1924-yillar) da yaratilgan tarixiy adabiyotlar orasida XX asr 20-30-yillarida davlat va partiya arboblari T.Risqulov, I.Xidraliyev, N.Turaqulov, G.Safarov asarlari muhim ahamiyatga ega[1:1].

Mustaqillik yillarida Q.Rajabovning nomzodlik, R.Abdullayev, D.Ziyoyeva, Q.Rajabov, A.Rasulov, Sh.Hayitov, U.Jumayev, M.Haydarov, M.Rahmatov, N.Rejabboyevlarning doktorlik dissertatsiyalarida Turkiston o'lkasidagi soliq siyosati tarixining ba'zi tomonlari yoritilgan[2:2].

Turkistondagi soliq siyosati va uning oqibatlari mavzusining ayrim jihatlariga Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston hamda Rossiya Federatsiyasi tarixiga oid e'lon qilingan ba'zi fundamental kitoblar va kollektiv monografiyalarda to'xtab o'tilgan. Xususan, MDH davlatlarida so'nggi yillarda chop etilgan A.A.Maslennikova, A.A.Kabanov, T.I.Kim, I.V.Sibotina, J.J.Kenjebaykizi, S.V.Korponenko, D.A.Mirpochoyev, A.S.Sokolovning monografiyalarida sovet rejimi va bolsheviklar

## TARIX

tomonidan olib borilgan soliq siyosati va uning ayanchli oqibatlarini manbalar asosida yoritilgan[3:3].Mavzuni ochib berishda tarix fanining xos metodlaridan qiyosiy-tahlil, manbalar tahlili, fanlararo metodlardan foydalanildi. Shu bilan birga tarixiylik, davriylik va xolislik tamoyili asosida mavzuni yoritib berishga harakat qilindi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Rossiya imperiyasiga barham berilgandan so'ng (1917-yil-fevral) Turkiston xalqi Markaz manfaatlariga xizmat qilishda, xususan, paxta ekib Rossiya armiyasini kiyintirish, to'qimachilik sanoatini barqaror ishlashi yo'lida mehnat qilishda davom etdi. Iqtisodiy sohada to'la nazorat qilishga uringan va bu borada zo'ravonlikka tayangan bolsheviklar shundoq ham podsho Rossiya davrida shakllanib, murakkab ko'rinishga kelgan soliq tizimini vayron qildilar [4:157-b]. Xususan, yer masalasida 1917-yil oktyabrda Sovetlarning II Butunrossiya syezdida yer haqidagi dekretni amalga oshirish to'g'risidagi qaroriga muvofiq, yerga bo'lgan xususiy mulkchilik bekor qilinib, yerlardan teng asosda foydalanish belgilandi[5:485,489-b]. Natijada shaxsiy manfaatdorlik hissi yo'qolib, mamlakat fuqarolarining soliq to'lash qobiliyatlari pasaydi. Boz ustiga, 1917-yilning bahori va yoz oylaridagi qurg'oqchilik tufayli qishloq xo'jaligi ham juda achinarli holatga keldi. Mazkur yilda, Turkistonda g'allaga bo'lgan talab 111 mln.pudni (bir pud- og'irlik o'lchovi bo'lib, u odatda 16,38 kilogrammga teng) [9:63-b] tashkil qilsa-da amalda 52 mln.pud g'alla yetishtirildi [8:70,74-b]. Aynan, 1917-fevral inqilobidan keyin Turkistonga g'alla keltirish amalda to'xtab qolgan, vaholanki, shu yilda o'lkaga 28 mln.pud g'alla yetishmas, bir pud g'alla 3,5 so'mdan 81 so'mga qadar oshib ketgan edi[6:16-b]. Xususan, 1917-yil O'sh, uyezdi uchun ham juda og'ir keldi. Yomg'irning bo'lmaganligi sababli lalmikor yerlardan biror pud ham g'alla hosili olinmadi[7:86-b]. Kuzgi bug'doy, paxta, guruch, jo'xori, beda kabi sug'oriladigan yerlardan olinadigan hosil ham qorning yog'maganligi, suvsizlik tufayli yaxshi bo'lmadi. 1917-yilning 6-aprelidagi bo'ron bo'lishi, to'rt kun davomida juda sovuq havoning turishi, kechasi -3C sovuq bo'lishi bog' va ekinzorlardan olinadigan barcha hosilni nobud qildi. Boz ustiga, non va boshqa non mahsulotlarining chegaralangan holda Kavkaz va Rossiyadan olib kelinishi narxlarning tez va haddan ziyod oshishiga olib keldi. Natijada O'sh uyezdidan ham ocharchilik yuzaga kelib, ocharchilik rayoni deb belgilandi[7:86-b].

O'sh uyezdidan farq qilmagan holatda Kazalinsk uyezdining iqtisodiy holati ham ayanchli ahvolda bo'lib to'lovlarga mutlaqo qobiliyatsiz edi.Bu hududlar ham chorvador hudud hisoblanib, tabiiy iqlim sharoitlarining yaxshi emasligi dehqonchilikni rivojlanishiga yo'l bermadi. 1917-yilda Kazalinsk uyezdida 4.000 desyatina (bir desyatina-1,09 gektarga teng yuza, o'lchov birligi) [10:109-b] yerga bahorgi bug'doy ekilib, 10.000 ga yaqin pud hosil olindi, qolgan katta qismi qurg'oqchilik sababli nobud bo'ldi. 1918-yilning o'rtalariga kelib suv daryodan qochib, bug'doy ekilgan maydonlar sug'orilmay qoldi, hosildorlik esa o'rtachadan ham past bo'ldi. Huddi boshqa uyezdlar kabi bu yerda ham mahalliy aholi g'allaga muhtoj bo'lib, g'allani boshqa hududlardan olib kelishga ehtiyoj bor edi [7:99-b].Noqulay ob-havo, bahorgi qurg'oqchilik, o't-o'lan va somon zahirasining yo'qligi tufayli 1917-1918-yilning qishida 50 foiz chorvadagi hayvonlar yo'qotildi, ba'zi xo'jaliklar esa 75 foiz chorva hayvonlaridan ayrildilar [7:99-b]. 1917-yilning oxiriga kelib vabo, toshma (xolera, sipnoy tif) kabi kasalliklar keng tarqalib 600 tagacha o'lim holatlari ro'y berdi, 10.000 dan ortiq odam epidemik kasallikdan xastalandi, 1500 ga yaqin xo'jaliklar vayron bo'ldi. Kazalinsk uyezdida ahvol qanchalik og'ir bo'lmasin soliqlarni to'lashda imtiyozlar berilmadi. 1917-yilda soliq to'lovchilarning umumiy soni 33.660 nafardan 1918-yilda 32 060 nafarga tushib qoldi. Chorva egalari ham o'zlarida bor hayvonlaridan ayrilmaslik va turli xil soliqlarga tortilmaslik uchun Amudaryo bo'ylariga qochishga majbur bo'lishdi [7:100-b].

Samarqand uyezdida noqulay ob-havo hosil olishga ham, paxta yig'imiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, bir desyatina 50 pudgacha, ya'ni o'rtadan past hosil olinib, iqtisodiy holat ancha og'ir bo'ldi. Xo'jalik mahsulotlari va nonga narxlar yuqori bo'ldi. 1918-yilda olingan hosil 1917-yilga nisbatan mahalliy ehtiyojlar uchun yetarli bo'lsada, boshqa hududlarda nonga bo'lgan ehtiyoj tufayli olib ketildi va oqibatda yana nonning narxi qimmatlashishiga olib keldi ("jadval") [7:50-b].

## 1917-yil va 1918-yilgi hosilning desyatidan pud hisobida olinishi

№	Hosil	1917 yil desyatina hisobidan o'rtacha pud	1917 yil desyatina hisobidan o'rtacha pud
1	bug'doy	80 pud	100 pud
2	jo'huri	100 pud	160 pud
3	guruch	100 pud	140 pud

Chorvachilik 1917-yilga nisbatan 50 foiz qisqargan bo'lsada, 1918-yilning bahoridan holat yaxshilana boshladi, lekin chorvachilikdagi yo'qotishlar 1916-yildagi chorva miqdorini tiklash keyingi besh yillikda ham amri-mahol edi.

Qolaversa, Samarqand uyezdi Ashxabod fronti ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilib, ko'p miqdordagi hayvonlar va otlar zahirasi bilan ta'minlashi hisobiga juda ko'p otlar yo'qotildi [7:50-b]. O'lkadagi harbiy holat esa transportning izdan chiqishi va savdo faoliyatiga keskin ta'sir qildi. 1918-yilga kelib, Samarqandda tovarlarning tanqisligi kuchaydi, xususi savdo to'la qonli muzlatilib, yo'qqa chiqdi. Mahalliy aholining turmush tarzi 1917-yildagi hosilsizlik, narx-navoning keskin ko'tarilish tufayli yomonlashib, soliqlarni to'lashga chorasiz edilar. Boz ustiga, qishloqlarda mahalliy ma'murlarning egallab turgan lavozimlarini tez-tez almashtirilishi, tajribasizligi tufayli soliqlarni undirish keskin pasaydi. Masalan, 1918-yil 1-yanvar holatiga davlat yer solig'idan 431 532 so'm 85 tiyin, zemstvo yig'imlaridan (dexqonlar yeridan hosilning 2/3 qismi hisobidan mahalliy boshqaruv va armiyani ta'minlash hisobiga undirilgan-U.M.) 155 755 so'm 69 tiyin, oziq-ovqat jamg'armasidan-1281 so'm 62 tiyin, harbiy soliqlardan 108 271 so'm 79 tiyin, jami 696 881 so'm 95 tiyin qarzdorligi mavjud edi[10:435-b]. Xususi yer egalari davlat yer solig'idan-12.398 so'm 41 tiyin, harbiy soliqlardan-1215 so'm 27 tiyin, zemstvo yig'imlaridan-1971 so'm 57 tiyin, jami 15.585 so'm 25 tiyin qarzdor edilar[7:50,51-b].

Shunday og'ir sharoitda ham, mahalliy g'aznaga 1918-yil 1-avgust holatiga (1917-yil qarzdorligi hisobidan-U.M.) qishloq jamoalaridan davlat yer soliqlari-16 423 so'm 58 tiyin, yer yig'imlaridan-80 346 so'm 58 tiyin, harbiy soliqlardan-62210 so'm 01 tiyin, oziq-ovqat jamg'armasi uchun 846 so'm 02 tiyin jami 308116 so'm 19 tiyin kelib tushgan. Xususi yer yegalaridan davlat yer solig'i-10455 so'm 38 tiyin, yer yig'imlari-1703 so'm 42 tiyin, jami 12158 so'm 80 tiyin, 2 foiz zemstvo yig'imlaridan-3292 so'm 88 tiyin, jami 323.567 so'm 87 tiyin. soliqlar kelib tushgan [7:52-b]. Samarqandda vaziyat og'irligiga qaramay, mahalliy sovetlar tomonidan aholi 50 foiz miqdoridagi qo'shimcha soliqqa tortiladigan bo'ldi. Manbalarda mahalliy ma'muriyat bor kuchini qo'shimcha soliqlarni undirishga qaratganligi, 50 foizdan oshiqcha soliqlarni ham undirishga zo'r berib harakat qilinganligi, lekin ularni undirishga oid ko'rsatmalar hech qanday qarorlarda bildirilmaganligi va undirilgan soliqlarning aniq miqdori haqida ma'lumotlar topilmaganligi to'g'risida manbalar uchraydi. Undiruv miqdori viloyat, uyezd, volost sovetlarining qarorlari bilan ijroiya va boshqa komitetlar tomonidan pul yoki mahsulot shaklida undirilgan. Bunday undiruvlar 300-400 ming so'm miqdorida volostlardan undirilgan bo'lib, 1918-yilda Samarqand uyezdi bo'yicha 6-8 million so'mni tashkil etgan [7:52-b]. Soliq to'lovchilarning sonini faqatgina ularga yaqin sonlar bilan solishtirish mumkin edi. Davlat yer solig'ini to'lovchilar 1917-yilda 50 047 nafarni tashkil qilgan bo'lsa 1918-yilda 5 foizga kamaygan, ya'ni 48545 nafarga yaqin tog' va tog' oldi hududlarida ochlik va kasalliklarga chalinganlar hisobiga o'rtacha 10 foiz ga qisqargan edi [7:53-b]. Chernyayev uyezd bo'yicha 1917-yilda 46 256 so'm 96 tiyin davlat daromad solig'ining kelib tushishi taxmin qilingan bo'lsa, amalda bu 15136 so'm 02 tiyinni tashkil etdi. 1918-yilning 1-yanvar holatiga 31151 so'm 954 tiyin, ko'chmas mulklardan undiriladigan soliqdan jami 2479 so'm 37 tiyin qarzdorlik aniqlangan [7:13,14-b].

**XULOSA**

Turkiston o'lkasining deyarli barcha hududlarida qurg'oqchilik, hosilning va chorvaning nobud bo'lishi, kasalliklarning avj olishi natijasida mahalliy aholi jabr ko'rdi. Savdo-sotiq izdan chiqib, narxlar keskin oshdi. Boz ustiga, sovet hukumatining o'lka ijtimoiy-iqtisodiy hayotida chuqur yo'qotishlarga sabab bo'lgan soliq siyosati faqat Markaz mafaatlari uchungina xizmat qilib, o'lkadagi iqtisodiy vaziyatning yanada keskinlashuviga olib keldi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. Сборник статей, докладов, речей и тезисов с предисловием автора. Часть I. 1917-1919 гг.-Ташкент: Узбекгосиздат, 1925.(Ryskulov T.Revolution and the indigenous population of Turkestan.1925y); Хидыралиев И.Басмачество и народное хозяйство Ферганы// Военная мысль и революция. 1923.-№4.-С.43-49.(Khidiraliyev I.Basmachismo and the national economy of Fergana.1923y); Дервиш.[Туракулов Н.] Ферганская проблема// Военная мысль.Кн.II.-Ташкент, 1921.-С.108-118.(Dervish.[Turakulov N.]Fergana problem. 1921); Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана).-Москва: Госиздат, 1921.(Safarov G.Colonial revolution.-Moscow,1921y).

2. Radjapov Q.K. Farg'ona vodiysidagi istiqloqlchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918-1924-yillar), tarix fani nomz.diss.-Toshkent, 1995; (); Абдуллаев Р.Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Автореф. дис...канд.ист.наук.-Ташкент, 1998.(Abdullaev R. National political organizations of Turkestan in 1917-1918y. -Tashkent, 1998); Зияева Д.Х.Национально освободительное движение в Туркестане в историографии 20 века (проблемы изучения истории восстания 1916 года и движения «истиклолчилик» (1918-1924 гг.) -Ташкент, 1998.(Ziyaeva D.Kh. The national liberation movement in Turkestan in the historiography of the 20th century (problems of studying the history of the uprising of 1916 and the Istiklolchilik movement of 1918-1924y).-Tashkent,1999); Xaydarov M.Turkistonda sovet hokimiyatini mrkazlashtirish siyosati oqibatlari (1917-1924 yillar). Tarix fanlari nomz.diss. - Tashkent, 1998.( Khaidarov M. Consequences of the policy of centralization of Soviet power in Turkestan (1917-1924y). - Tashkent, 1998); Набиев Ф.Проблемы и противоречия социальной политики в Туркестане (1917-1924 гг). Дисс.докт.ист.наук.-Ташкент, 1995; Агзамходжаев С. Туркестон мухторияти: борьба за свободу и независимость (1917-1918 гг.): Автореф. дис.докт. ист. наук.-Ташкент, 1996.( Nabiev F. Problemly and anti-social politics in Turkestan (1917-1924y). -Tashkent, 1995.( Agzamkhodjaev S. Turkestan autonomy: struggle for freedom and independence (1917-1918y) -Tashkent, 1996); Rasulov A. Turkiston va Volgabo'yi,Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar tarixi (1917-1924 y) tarix fan.dokt.diss.-Toshkent, 2005.( Rasulov A. Turkistan and Volgabo'yi, history of relations between Uraloldi peoples (1917-1924y)-Tashkent, 2005); Jumaev U.Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix fanlari nomz.diss. - Tashkent, 2012.( Jumaev U. The formation of the tax policy of the Russian empire in Turkestan: the main stages and development. -Tashkent, 2012); Raxmatov M. Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlati (1917-1924y). Tarix fanlari bo'yicha fal.dok (PhD)diss.-Toshkent, 2019.( Rahmatov M. Famine in Turkestan and its consequences (1917-1924y).-Tashkent,2019); Rejabboev N.Sovet hokimiyatining Turkistondagi oziq-ovqat siyosati va uning oqibatlati (1917-1924 y). Tarix fanlari bo'yicha fal.dok (PhD)diss.-Toshkent, 2019.

( Rejabboev N. The food policy of the Soviet government in Turkestan and its consequences (1917-1924y). - Tashkent, 2019.

3. Масленникова А.А. Налоговая политика советской России в 1917-1929 гг. (историка правовой анализ). Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Нижегород, 2004.-29с. (Maslennikova A.A. Tax policy of Soviet Russia in 1917-1929 (historian of legal analysis). -Nizhny Novgorod, 2004); Кабанов А.А.Налоговая политика и налоговая идеология в эволюции государственно-правовой системы России с 1917 по 1992 гг. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Санкт-Петербург, 2008.-21с.( Cabanov A.A. Tax policy and tax ideology in the evolution of the state-legal system of Russia from 1917 to 1992. -Saint-Petersburg, 2008);

Ким Т.И. Советская государственная налоговая политика в период НЕПА 1921-1929 гг. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Краснодар,2011. (Kim T.I. Soviet state tax policy during the NEPA period 1921-1929y. -Krasnodar, 2011); Сибботина И.В. Налоговое законодательство и налоговая политика в годы НЭПа (1921-1930 гг). Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Москва., 2008.-28с. (Sibbotina I.V. Tax legislation and tax policy in the years of the NEP (1921-1930).-Moscow, 2008.); Корпонец С.В. Податкова политика Ряданской влады в Украинском селу у видбудовчий период 1921-1925 гг. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.ист. наук.-Донецк, 2000.-20с.( Korponenko S.V. Podatkova policy of Ryadanskoe vladu in the Ukrainian village near Vidbudovchiiy period 1921-1925. -Donetsk, 2000); Мирпочоев Д.А. Налоговая политика Республики Таджикистан в условиях перехода к рыночной экономике. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.эконом. наук.-Краснодар, 2007.-24с. (Mirpochoev D.A. Tax policy of the Republic of Tajikistan in the transition to a market economy. -Krasnodar, 2007.); Соколов А.С. Финансовая политика советского государства в годы НЭПа 1921-1929 гг. Автореф.дисс. на соис.учен.степ.док.ист.наук.-Москва, 2006.-36с.( Sokolov A.S. The financial policy of the Soviet state in the years of the New Economic Policy of 1921-1929 y. -Moscow, 2006)

4. Rasulov A.N.Turkistondan panoh topganlar// "Bag'rikenglik –o'zaro ishonchni rivojlantirishning vositasi sifatida". Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2018.-b. 157.(Rasulov A.N. International scientific conference by "Tolerance-as tool for the development of measures of mutual trust" 2018 y)

5.Lenin V.I.O'rta Osiyo va Qozog'iston to'g'risida-Toshkent: O'zbekiston, 1984.-b.489-495.(Lenin V.I.About Central Asia and Kazakhstan.1984y)

6. Rejabboyev.N.A.Sovet xokimiyatining Turkistondadagi oziq-ovqat siyosati va uning oqibatlati.(1917-1924yy.) O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss.-Toshkent,2019.(Rejabboyev N.A.Soviet Government's Food Policy in Turkestan and it is consequences.1917-1924 y)

7. O'zMA, R-37-fond, 1-ro'yxat, 25559-ish, 50- varaq., 13,14- varaqlar., 50, 51-orqa varaqlar., 52-varaq orqasi., 53-varaq orqasi., 86-varaq va orqasi., 99-varaq orqasi., 100- varaq orqasi. (NA RUZ.R.37-f.)

8.O'zMA,R-25-fond, 1-ro'yxat, 6-ish, 70-74-orqa varaqlar. (NA RUZ.R.25-f.)

9. Raxmatov M. Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlati (1917-1924y). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-Toshkent, 2019.-b.17, 63.( Rahmatov M. Famine in Turkestan and its consequences (1917-1924y).-Tashkent, 2019);

10. Финансовый кредитный словарь.Москва.1984.-с.435.(Financial-credit dictionary.1984 y